

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

UDK: 811.161.1'373.7

ORCID: 0009-0006-0053-5429

FRAZEOLOGIK DERIVATLARNI STRUKTURAL-SEMANTIK O‘ZIGA XOSLIGI

Nortoyeva Nodiraxon Muxammadaliyevna

ADChTI, o‘qituvchi

nodiran@mail.ru, +998902682037

Annotatsiya: Ushbu maqolada frazeologik tizimning semantik xususiyatlarini ochib berish bilan birga ularni semantik modellashtirish masalasi haqida so‘z boradi. Frazeologizmlarni modellashtirish, frazeologik tilni o‘rganishdagi yangi yo‘nalish sifatida, zamonaviy fanning barcha sohalarida bilim olishning samarali usuli bo‘lib qoldi. Bu yondashuv frazeologik birliklarning paydo bo‘lishi va ularning semantik o‘zgarishlarini yanada chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: frazeologizmlar, derivatlar, semantik modellashtirish, strukturaviy-semantik, hosila, sof birliklar, parchalanish.

СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ДЕРИВАТОВ

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос семантического моделирования фразеологических единиц наряду с раскрытием их семантических особенностей. Моделирование фразеологизмов, как новое направление в изучении фразеологической системы, стало эффективным методом получения знаний во всех областях современной науки. Такой подход способствует более глубокому пониманию процесса возникновения фразеологических единиц и их семантических изменений.

Ключевые слова: фразеологизмы, дериваты, семантическое моделирование, структурно-семантический, производные, чистые единицы, распад.

STRUCTURAL AND SEMANTIC FEATURES OF PHRASEOLOGICAL DERIVATIVES

Annotation: This article examines the issue of semantic modeling of phraseological units along with revealing their semantic features. Phraseological modeling, as a new direction in the study of the phraseological system, has become an effective method of acquiring knowledge in

all fields of modern science. This approach contributes to a deeper understanding of the emergence of phraseological units and their semantic transformations.

Keywords: phraseological units, derivatives, semantic modeling, structural-semantic, derived forms, pure units, decomposition.

KIRISH. Ma'lumki, frazeologik tizimning semantik xususiyatlaridan biri frazeologik birliklarning tabiati bilan bog'liq bo'lib, asosan uning ifoda planining mazmun planiga mos kelmasligida ya'ni qarama-qarshiligida namoyon bo'ladi. Uzoq vaqt davomida tilshunoslar frazeologik birliklarning tabiatiga ko'ra ular modellashtirilmaydigan tuzim deb qarashgan. Bu nuqtai nazarga ko'plab yetakchi frazeologlarimiz amal qilishgan. Frazeologik birliklar tilda keng qo'llaniladigan, ma'lum bir ma'no yukini anglatuvchi, ko'pincha ko'chma ma'noga ega bo'lgan tayyor iboralar hisoblanadi. Bu birliklar o'ziga xos semantik va struktur xususiyatlarga ega bo'lib, ularni o'rganish tilshunoslikda muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, frazeologik birliklarning semantik tahlili ularning ichki tuzilishini, ma'no hosil bo'lish jarayonlarini hamda ularning lingvistik va madaniy asoslarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Shuni ta'kidlash joizki, frazeologik birliklar xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va milliy o'ziga xosligini aks ettiradi. Shu boisdan frazeologik tizimni tadqiq etish nafaqat lingvistik, balki madaniy va psixologik jihatdan ham dolzarb masala hisoblanadi. Frazeologizmlarning ifoda va mazmun rejasidagi nomuvofiqlik, ularning semantik o'ziga xosligini aniqlashda muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotda frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari va ularning ifoda-mohiyat qarama-qarshiligi tahlil qilinadi hamda bu jarayonning lingvistik asoslari yoritib beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Tilshunoslikda frazeologik birliklar tahlil qilinayotganda ularning tuzilishi va semantikasi muhim o'rin tutadi. Frazeologik derivatlar esa bu jarayonda alohida e'tiborga loyiqdir. Chunki ular tilning leksik va grammatik tizimida murakkab va ko'p qirralilikni namoyon etadi. Frazeologik derivatlar deganda, mavjud frazeologik birliklar asosida hosil qilingan yangi ma'no yoki shakldagi iboralar tushuniladi. Ular tildagi so'z boyligini kengaytirish, obrazlilikni oshirish va muloqot jarayonini jonlantirishda muhim rol o'ynaydi. Frazeologik derivatlarning semantikasi ularning hosil bo'lish usuliga qarab turlicha namoyon bo'ladi. Ba'zi hollarda yangi hosil qilingan birliklar asl frazeologizmlarning ma'nosini to'liq saqlab qoladi, boshqalarida esa yangi, ko'chma yoki obrazli ma'no hosil bo'ladi. Masalan, "tili uzun" iborasidan "tili uzunlik" frazeologik derivati hosil qilinadi va bu iboraning semantikasi obrazli tus oladi. Frazeologik derivatlar ko'pincha metaforik va metonimik asosda shakllanadi. Metaforik hosila ma'lum bir obraz orqali ifodalanib, yangi tushuncha yoki hissiyotni aks ettiradi. Metonimik hosila esa qisman aloqadorlik asosida vujudga kelib, biror belgiga asoslangan holda yangi birlikni yaratadi. Masalan, "qora yurak" iborasidan hosil bo'lgan "qorajon" so'zi metaforik xarakterga ega.

N.N. Amosovning fikricha, frazeologizmlar "modellashtirilmaydi, bu esa ularning material tarkibini va konkret ma'no natijalarini belgilash uchun mo'ljallangan modelga ega emas" degan qarashga asoslanadi. Shunga o'xshash nuqtai nazarni A.V. Kunin ham bildiradi. Unga ko'ra, "Frazeologik birliklar hech qachon struktural-semantik model asosida yaratilmaydi. Bunday modelning paydo bo'lishi ularning parchalanishiga olib keladi..." [1,87]. Asosiy argument shundan iboratki, semantik modellashtirish frazeologik birliklarning eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lgan prognoz qilinmaslik xususiyatiga mos kelmaydi. Bu xususiyat frazeologik birliklarning paydo bo'lishi va ularning semantik tuzilishida yaqqol namoyon bo'ladi.

Frazeologizmlarning shakllanishi tasodifiy jarayon bo'lib, ongli ravishda boshqarilmaydi. Ayniqsa, komponentlarining metaforik yoki metonimiy ma'nodagi o'zgarishlari bilan bog'liq frazeologik birliklar uchun semantik modellashtirishning ahamiyati kam. Biroq, ichki shaklga ega bo'lgan va modellashtirishga yaroqli deb hisoblangan frazeologizmlar ushbu turkunga kiritilishi mumkin. Agar semantik modellashtirishga tavsifiy yondashuv nuqtai nazaridan qaralsa, bu jarayon nafaqat mumkin, balki obyektiv haqiqat sifatida qabul qilinadi. Ushbu fikrni rus olimlari Gavrin, Gvozdaev, fransuz tilshunoslari Sh. Balli, J. Dibia hamda o'zbek tilshunoslari X. Saparov va N. Turapova o'z ilmiy-tadqiqot ishlarida ochib berganlar. Frazeologizmlarni modellashtirish, frazeologik tilni o'rganishdagi yangi yo'nalish sifatida, zamonaviy fanning barcha sohalarida bilim olishning samarali usuli bo'lib qolmoqda. A.F. Losevning ta'rifiga ko'ra, til modeli "til elementlarining tartibli to'plami bo'lib, u bir-biridan ajratilgan butunlikni tashkil etadi, unda o'z tartiblash printsipli va unga kiruvchi barcha elementlar va ularning kombinatsiyalarining bo'linishi o'z aksini topadi..." [2,28].

O'zbek tilshunosi B. Yo'ldoshevning fikriga ko'ra, turli xil til (nutq) birliklarining hosil bo'lish mexanizmlarini modellashtirish orqali, bu jarayonning asosiy va yakuniy ma'lumotlarini taqqoslash asosida o'rganish mumkin. Frazeologik model til mexanizmining bir qismi sifatida faoliyat yuritadi. Bu modellar til egalarining ongida barqaror mustahkamlanib, komponentlarning birligi va ularning bir martalik takrorlanishi bilan ajralib turadi. Yo'ldoshevning fikricha, "Frazeologik modelni tahlil qilishda faqat tilning o'ziga xos mexanizmlarini bilish yetarli emas, balki fikrni shakllantiruvchi ong mexanizmlarini ham o'rganish muhimdir." Bu yondashuv frazeologik birliklarning paydo bo'lishi va ularning semantik o'zgarishlarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi [3,88].

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Zamonaviy tadqiqotlarning aksariyatida frazeologik birliklar va ularning kategorik xususiyatlari ma'lum chegaralarda modellashtirish asosida tahlil qilinadi. Biroq, o'zbek tilshunoslari fikriga ko'ra, frazeologik birliklarning shakllanishi va ishlatilishi jarayonlarini tahlil qilishda milliy tilning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. O'zbek tilshunosi B. Yo'ldoshevning fikrlarini davom ettirib, frazeologik birliklarning yaratilishi o'ziga xos qoidalar asosida amalga oshadi va bu birliklar boshqa til qatlamlari kabi tipiklikka ega bo'lib, ularning shakllanishida istisnalar deyarli uchramaydi, deb hisoblaydi. Ushbu fikrlar frazeologik birliklarni shakllantirish jarayonlarining ichki

mexanizmlariga chuqurroq kirib borish, frazeologizmlarning semantik va obrazli tuzilmasini shakllantirish jarayonlarini tushunish hamda ularning faoliyat xususiyatlarini o‘rganish imkonini beradi. Frazeologizmlar original bo‘lsa-da, ular tilning boshqa daraja birliklari kabi o‘ziga xos umumiylikka ega bo‘lib, til tizimida istisno hisoblanmaydi. Til birliklarining shakllanishi esa sinovdan o‘tgan andozalar asosida amalga oshadi. Garchi model faqat bitta shaklda qo‘llanilsa ham, vaqt o‘tishi bilan uning asosida yangi frazeologik birliklar yoki, hech bo‘lmaganda, okkazional variantlar yaratilishi mumkin.

Masalan, o‘zbek tilida:

Odamning (o‘zbekning) kichigi bo‘lguncha itning kuchugi bo‘l

Beshni beli bo‘guncha, oltini oyog‘i bo‘l

Arqog‘ini ko‘rib bo‘ozini ol - Onasini ko‘rib qizini ol

Fransuz tilida:

Qui sème le vent récolte la tempête (Shamol ekkan bo‘ron oladi)

Qui sème le vent récolte une dette (Shamol ekkan, qarz yigadi)

Qui crache au ciel, il lui retombe sur le visage (Osmonga tuflagan, yuziga tushadi)

Frazeologik derivatsiyaga kelsak, u, avvalo, hosila nomlarni modellashtirish sohasi sifatida mavjud. Uning vazifasi — atrofda voqelikda kuzatiladigan aloqa turlarini tartibga solish va umumlashtirish hamda ushbu aloqalarni aks ettirish uchun shakliiy vositalarni ishlab chiqishdir. Modellashtirish usuli yordamida ikki tuzilma o‘rtasidagi munosabatlarni rasmiylashtirish lingvistikada uzoq vaqtdan beri keng qo‘llanib kelinmoqda. Masalan, frazeologik derivatsiya va uning modellashtirishdagi o‘rni haqida fransuz lingvisti quyidagicha fikr bildiradi: "Frazeologik birliklar tilning murakkab tuzilmalaridan bo‘lib, ularning shakllanishi va rivojlanishi modellashtirish orqali o‘rganilishi mumkin. Bu jarayon tilning dinamikasini va uning ijtimoiy-madaniy omillar bilan o‘zaro aloqasini tushunishda muhim ahamiyatga ega."

Alain Reyning bu fikri frazeologik derivatsiyaning tilshunoslikdagi ahamiyatini va modellashtirish usulining qo‘llanilishini ta’kidlaydi. Shunday qilib, modellashtirish usuli frazeologik derivatsiya bilan bog‘liq qonuniyatlarni aniqlashda maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu usul hosila birliklarni modellar asosida shakllanish jarayonini kuzatish imkonini beradi. Agar modelni sof struktura sxemasi yoki frazeotuzuvchi formula sifatida tushunsak, u mazmun rejasiga ega bo‘lmagan birlik sifatida qabul qilinadi. Keltirilgan fikrlarni quyida leksikografik manbalardan olingan derivatsion modellar misolida yoritib beramiz:

Strukturaviy-semantik ajratish modeli Bu model frazeologik birlik ichidagi komponentlar qanday ajralib, ma’no jihatidan o‘zgarishini ko‘rsatadi.

Misollar:

Oltin bosh – qora to‘n kiyadi: aqlli, dono lekin e’tiborsiz qolgan inson.

Oltin boshli xotindan chelak boshli er yaxshi: dono ayolga qaraganda amaliyotchi erkak afzal.

Fransuz tilida:

Mettre de l'eau dans son vin (Vinosiga suv qo'shmoq) – O‘zining talablarini yoki pozitsiyasini yumshatmoq.

Komponent tarkibini kengaytirish modeli Bu model frazeologik birlikdagi komponentlar qanday kengayib, qo'shimcha elementlar orqali yangi ma'no hosil qilishini tushuntiradi.

Misollar:

Qo‘ldagi bir qush ikki qushdan yaxshiroq: mavjud narsani xayoliy narsadan afzal bilish.
So'nggi jarimaga bor: oxirgi nafasda kurash.

Qari qushni jo'mrak bilan tutish: osongina aldanish.

Yuqoridagi misollar frazeologik modellashirish imkoniyatlarini ko'rsatadi va o'ziga xos frazeologik to'plamlarning shakllanishiga yordam beradi.

XULOSA. Til tizimida frazeologizmlar va ularning derivatlarining shakllanishi ko‘pincha an‘anaviy namunalar asosida amalga oshadi va bu jarayon tilning umumiy tuzilishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Barcha bunday holatlarda mavjud frazeologik birliklar modellariga asoslangan holda okkazonal variantlar yaratiladi, ko'pincha paronomaziya kabi usullar qo'llaniladi. Ushbu okkazonal variantlar badiiy frazeologiyaning uslubiy qonunlariga mos kelganda, ular vaqt o'tishi bilan normativ variantlarga aylanishi mumkin. Zamonaviy tadqiqotlarning aksariyatida, ayniqsa, frazeologik birliklar va ularning kategoriyaviy belgilariga bag‘ishlangan ishlarda, ma’lum chegaralarda modellashirish mumkinligi ta’kidlanadi.

Frazeologizmlarning shakllanishida ijtimoiy-madaniy omillar ham muhim rol o‘ynaydi. Til foydalanuvchilari tomonidan yaratilgan yangi iboralar va ularning tarkibiy tuzilishi jamiyatning madaniy va ijtimoiy o‘zgarishlarini aks ettiradi. Shu sababli, frazeologik birliklarning rivojlanishi doimiy dinamik jarayon bo‘lib, yangi okkazonal birliklarning paydo bo‘lishi va ularning ommalashuvi tilning tabiiy rivojlanishining muhim qismi hisoblanadi. Shuningdek, frazeologik birliklar kommunikativ funksiyani kuchaytirish, obrazlilikni oshirish va nutqning ekspressivligini ta’minlashda alohida ahamiyatga ega. Bunda okkazonal variantlar tilning uslubiy imkoniyatlarini kengaytirib, ijodiy ifodaning yangi shakllarini yuzaga keltiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, frazeologik birliklarning shakllanishi va rivojlanishida lingvistik hamda ekstralingvistik omillar o‘zaro aloqadorlikda namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI.

1. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. Изд-во- Л , стр. 53. 1963
2. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1996. – 381с.87-bet
3. Лосев А.Ф. Введение в общую теорию языковых моделей. – М.: УРСС, 2004. – 296с.28-bet
4. Le Français : une langue qui défie les siècles, Paris, Gallimard, 2008 p-46
5. Shorahmedov M."O‘zbek xalq maqollari". Fan, Toshkent, 1981 . 118- b

6. Нортыева, Н. М. СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ДЕРИВАТОВ.2024.Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(09), 27-28.

7. Muhammadaliyevna, N. N. FRANSUZ TILIDA IKKILAMCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR YASALISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. JOURNAL OF LANGUAGE AND LINGUISTICS, 2024. 7(1), 67-70.

8. Muhammadaliyevna, N. N. LES TRAITS PRAGMATIQUES DES DÉRIVÉS PHRASÉOLOGIQUES EN FRANÇAIS. International Journal of Education, Social Science & Humanities, 2024. 12(4), 703-706.